



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATI VA UNING TASHKIL ETUVCHILARI

Xakimov Tulkin

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0000-0001-7280-9981

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, sohada yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mamlakat sanoatini xomashyo, aholini sifatli oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchilari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, korxona, salohiyat, iqtisodiy salohiyat, zahira, imkoniyat, moliyaviy salohiyat, agrar siyosat.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И ЕГО СОСТАВЛЯЮЩИЕ

Хакимов Тулкин

Ташкентский институт текстильной и

легкой промышленности

Аннотация. Повышение экономического потенциала сельско-хозяйственных предприятий, развитие производства продукции с высокой добавленной стоимостью на отрасли, обеспечение промышленности страны сырьем, населения качественными продуктами питания имеет важное значение на современном этапе экономических реформ. Исходя из этого, в данной статье анализируются составляющие экономического потенциала сельскохозяйственных предприятий.

Ключевые слова: сельское хозяйство, предприятие, потенциал, экономический потенциал, резерв, возможность, финансовый потенциал, аграрная политика.

THE ECONOMIC POTENTIAL OF AGRICULTURAL ENTERPRISES AND ITS COMPONENTS

Khakimov Tulkin

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. Increasing the economic potential of agricultural enterprises, developing the production of high-value-added products in the industry, providing the country's industry with raw materials and the population with high-quality food products is important at the present stage of economic reforms. Based on this, this article analyzes the components of the economic potential of agricultural enterprises.

Keywords: agriculture, enterprise, potential, economic potential, reserve, opportunity, financial potential, agrarian policy.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o'zgarishi ta'sirida sayyoramizning ko'plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlarning xo'jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Shu tariqa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi sanoat ishlab chiqarishi o'sishini rag'batlantirishda katta multiplikativ ta'sir ko'rsatishi mumkin (Nurmuxammadova, 2021). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishi, iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ham mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishiga olib keladi, ayni paytda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishi qishloq xo'jaligida 0,18 dollarlik o'sishni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'sishining mazkur multiplikatorlari odatda, daromadi past mamlakatlarda yuqori bo'lishi kuzatiladi, chunki mazkur mamlakatlarda sanoat sektorining asosiy ulushi (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) va xizmatlar sohasi qishloq xo'jaligi ko'rsatkchilariga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlarning tobora shiddatli tus olishi sharoitida tadbirkorlik sub'yektlarining joriy holatini monitoring qilish, mavjud resurslardan foydalanishni baholash va tahlil qilish, samarali boshqaruv echimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida zamonaviy korxona uchun eng dolzarb muammolardan biri raqobatbardoshlik darajasini saqlab qola bilish va korxona faolligini ta'minlay olishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligi muammolari ularning mavjud salohiyatdan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq, bu o'z navbatida korxonaning ichki imoniyatlarini ishga solish, yashirin zaxira va manbalarni izlab topishga imkon beruvchi iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Mazkur maqolada ko'tarilgan muammoning dolzarbligi yana shunisi bilan muhimki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishga imkon beruvchi mukammal uslubiy ishlanmalar mavjud emas.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "Moliyaviy salohiyat" tushunchasi keng ko'llanilib, davlat, hudud, korxona, uy xo'jaliklarining jami moliyaviy imkoniyatlarining rivojlanishi sifatida qaraladi.

Xususan, mahalliy iqtisodchi – olimlarimizdan Pardayev (2002) moliyaviy salohiyatni korxonalar nuqtai nazaridan uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy resurslar majmui sifatida ta'riflagan. Zulunova (2008) korxonalarining moliyaviy salohiyati deb, uning moliyaviy xo'jalik faoliyatini, ya'ni unda sodir bo'ladigan barcha iqtisodiy jarayonlarni to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan (o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lar, ya'ni majburiyatlar)dan tarkib topgan moliyaviy resurslar majmui sifatida tan olinadi. Bunda moliyaviy salohiyatga oid barcha jarayonlar bir tomonlama qamrab olingan bo'lib, mikro darajadagi moliyaviy resurslar bilan tavsiflangan. Korxonalar moliyaviy salohiyat kategoriyasini Buranova (2020) shunday ta'kidlaydi: "Moliyaviy salohiyat – bu korxonaning o'z hususiy va jalb qilingan moliyaviy resurslari bo'lib, joriy va kelajakdagi harajatlarini tasarruf etishda o'zi haqlidir". Belorussiyalik mutaxassislar Plaksin va Poleshuk (2013) – "Korxonaning moliyaviy – iqtisodiy salohiyatini uning tashkil etadigan komponentlar summasi sifatida emas, balkim, har qanday ishlab chiqarish tizimida bo'lganiday, murakkab, o'zaro bog'liq salohiyatlar tizimining elementlari yig'indisi sifatida e'tirof etganlar". Yuqoridagilardan farqli ravishda, Suxova (2016) - "Korxona moliyaviy salohiyati: tushunchasi, mazmuni, o'lchash usullari" nomli

nashrida korxonalar moliyaviy salohiyatini “Korxona moliyasi” tushunchasi bilan bog‘lab, iqtisodiy munosabatar tizimi sifatida korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ishlatilishi jarayonida paydo bo‘lishini ifodalaydi”.

Iqtisodiy salohiyatni xo‘jalik yuritishning moddiy asosi sifatida tavsiflash asnosida Shukov (2002) iqtisodiy salohiyatning quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi: tabiiy - resurs; ekologik - iqtisodiy; ishlab chiqarish; innovatsion va ta‘lim (intellektual); mehnat (kadrlar) salohiyati.

Xasanov (2023) tahriri ostida chop qilingan “Moliya va soliqlar” darsligida korxonaning iqtisodiy salohiyati ishlab chiqarish, kadr, intellektual, moliyaviy, boshqaruv kabi tashkil etuvchilardan tarkib topishi ta’kidlab o‘tiladi. Bunday tasniflash iqtisodiy salohiyatni tahlil qilishda korxona faoliyat ko‘rsatishning tashqi shart-sharoitlari, resurslarning texnik-iqtisodiy tavsifi, korxonaning mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, xo‘jalik yuritish usullari kabi omillarni guruhlash imkonini beradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyati masalalari atroflicha o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatining nazariy jihatlarini borasida to‘xtalamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mahalliy va xorijiy olim va mutaxassislarning iqtisodiy tahlilni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv maqsadlarida moliyaviy ma’lumotlarni baholash uchun tahliliy amallarni bajarish va o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalarining tavsiyalaridan kelib chiqib mualliflik qarashlari ilgari suriladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatining tashkil etuvchilarini aniqlashtirish maqsadida mazkur maqolada guruhlash, taqqoslash, grafik, omillarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyot nazariyasida “tashkiliy va iqtisodiy mexanizm” tushunchasi ko‘pincha yanada kengroq kategoriya – “xo‘jalik mexanizmi” tushunchasi orqali ifoda etilsada, iqtisodchi olimlar bu borada bir to‘xtamga kela olmaydilar, chunonchi ularning qarashlari ilmiy tadqiqotlar sohasidan kelib chiqqan holda, bir-biridan farq qiladi. Tadqiq qilinayotgan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini ularning har birining mazmunini batafsil o‘rganish va bu borada nazariy yondashuvlarni rivojlantirish asosida o‘rnatish mumkin. Bu o‘z navbatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni mazmunan talqin qilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish va zamonaviy agrar siyosatni rivojlantirishdagi rolini o‘rnini aniqlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm masalalariga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun ob‘yektning mustaqil tarzda amalda bo‘lishini belgilab beruvchi shakl, usul va qoidalarining umumiyligi sifatida ifoda etiluvchi mazkur kategoriyaning o‘ziga xos jihatlarining o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashtirishning ilmiy ahamiyati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- qishloq xo‘jaligining ko‘p funktsionalligi va ilmiy asoslangan tashkiliy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish muammolarini talqin qilishda kompleks yondashuv va ilmiy qarama-qarshiliklarning mavjud emasligi;

- qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq joylarini ijtimoiy va ekologik jihatdan rivojlantirish masalalarini tartibga solish qoidalarini amalga oshirish uslubiyotining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Maxsus adabiyotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, aksariyat mualliflar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy tashkil etuvchilari tarkibiga quyidagilarni kiritishadi:

- mulkiy munosabatlar tizimi va ishlab chiqarish asosiy vositalari;

- iqtisodiyotning tashkiliy tuzilmasi, ya'ni tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida real iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi rasmiy va norasmiy tashkiliy aloqalar tizimi;
- iqtisodiy faoliyatning ma'naviy va axborot sohasini belgilaydigan ijtimoiy institutlar tizimi;
- iqtisodiy vositalar;
- ekomarketing, ekomonitoring, ekoudit, ekomenejment;
- belgilangan maqsadlarning bajarilishini nazorat qilish;
- iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning huquqiy asoslari;
- ijtimoiy soha, ijtimoiy dastaklar va boshqalar.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmni quyidagilardan foydalanishni o'z ichiga oluvchi ko'p funktsiyali tizim sifatida ko'rib chiqish lozim:

-iqtisodiy jihatdan samarali ishlashni tashkil etish, ularning tashqi muhit omillari va raqobat sharoitlariga nisbatan moslashuvchanligini oshirish usullari, normalari va qoidalari to'plami;

- mulkdorlar, menejerlar va yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni oqilona tashkil etish, manfaatlar uyg'unligiga erishish, missiya, maqsad va strategiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shakl va usullari;

- barqaror faoliyat yuritishni ta'min etuvchi o'ziga xos uslublar, xo'jalik yuritish tamoyillari, turli xil tashkiliy -iqtisodiy vositalar, bozor muhitida boshqarish usullari, dastaklari va rag'batlantirish usullarining umumiyligi.

Odatda, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmning funktsiyalari sirasiga quyidagilar kiritiladi:

- innovatsion va investitsion salohiyatni bashoratlash va rejalashtirish;
- barqaror rivojlanishni tashkillashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni muvofiqlashtirish va tartibga solish;
- innovatsion rivojlanishni monitoring qilish.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy salohiyatini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta tajriba to'plangan, bu har xil turdagi iqtisodiy faoliyat korxonalari salohiyatini baholash va tahlil qilish, uning holati va rivojlanish istiqbollari belgilovchi omillarni aniqlash uchun nazariy va tashkiliy-uslubiy qoidalarni ishlab chiqishni haqli ravishda talab qiladi (Salixova, 2011).

Ilmiy izlanishlar ob'yekti sifatida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini o'rganish ilmiy hamjamiyat o'rtasida qator munozaralarni keltirib chiqardi, bu o'z navbatida "koxona iqtisodiy salohiyati" tushunchasi mazmunini yanada aniqlash-tirishni taqozo etadi.

"Salohiyat" so'zi etimologik jihatdan frantsuzcha "potential" so'zidan kelib chiqqani va so'zma-so'z tarjima qilinganda "qudratli bo'lmoq" ma'nosini anglatga, boshqa bir tomondan esa lotincha "potentia" so'zidan kelib chiqqani va "kuch", "qudrat" sifatida talqin qilinishi aytib o'tiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "salohiyat" yaroqlilik, vakolat, hukmdorlik, to'liq hokimiyat, qobiliyat, iqtidor sifatida talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha bu o'rinda "salohiyat" tushunchasini tavsiflashda resurs, qo'shimcha manba va imkoniyat tushunchalaridan foydalanish ham o'rinli bo'lar edi.

Umumiy holatda, "salohiyat" vazifani hal qilish yoki belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan manba, imkoniyat, vosita va vazifalarni anglatadi (Akramov, 2024). Xususi ma'noda salohiyat-bu har qanday harakatning, har qanday funktsiyaning namoyon bo'lishining mumkin bo'lgan darajasidir. Keng ma'noda salohiyat - bu muayyan bir natijaga erishish maqsadida yo'naltirilgan omillar majmuidir. Muayyan sohaga bog'lamasdan salohiyatni moddiy resurslarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish qobiliyati sifatida tavsiflashimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, salohiyat-bu muayyan bir maqsad yo'lida ishlatilishi mumkin bo'lgan, ya'ni ma'lum shart-sharoitlarda erishilishi mumkin bo'lgan natijaning o'lchovi hamdir (Yuldashev, 2023).

“Salohiyat” atamasining semantik mazmunini keng talqin qilish, soʻz qanday kuch, vosita, zaxira, manbalar haqida ketayotganligiga qarabi, uni fan va amaliyotning turli sohalarida qoʻllash imkonini beradi (Uskova, 2006). Zamonaviy fanda qoʻllaniluvchi salohiyat kategoriyasi ikkita asosiy jihatni oʻz ichiga oladi. Birinchidan, “salohiyat” atamasini tushunish tabiatan “resurslar” tushunchasi bilan bogʻliq, ikkinchidan, salohiyat iqtisodiy sub’yektning resurslarni rivojlantirish, takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish borasidagi qobiliyatlarni oʻz ichiga oladi (Abduvoxidov, Matkuliyeva, 2023).

Iqtisodiy adabiyotlarda “salohiyat” tushunchasidan tabiiy, investitsion, intellektual, resurs, mehnat, iqtisodiy salohiyat kabi turli hodisa va shart-sharoitlarni miqdoriy baholashda keng qoʻllaniladi (Asaul, 2011). Alohida bir korxonaga nisbatan “salohiyat” tushunchasi nafaqat ishlab chiqarish imkoniyatlari, balki resurslardan oqilona foydalanish, davlat va biznes hamkorlarning manfaatlarini hisobga olish asnosida korxonaning integral imkoniyatlari isteʼmolchilarning ehtiyojlarini qay darajada qondirishga xizmat qilishini tavsiflashi lozim. “Korxona salohiyati” kategoriyasining mohiyatini aniqlashtirishda quyidagi jihatlar ajratib koʻrsatiladi: mulkiy jihatdan mansublik; muayyan vazifalarni hal eta olish; tarkibiy unsurlarning uzluksiz harakati va umumiy oʻsishga yoʻnaltirilganlik (Logosha, 2020). Korxonaning iqtisodiy salohiyati-bu resurs salohiyatiga asoslanuvchi salohiyatni yaxlit baholash va iqtisodiy samaraga erishish maqsadida ulardan foydalanish jarayoni hamdir. Iqtisodiy salohiyat zarur resurslarni jamlash asosida resurs salohiyatidan samarali foydalanishni taʼminlaydi. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini korxonaning yangi oʻzgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga hozirmaqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Sheremetevning (2008) taʼkidlashicha, korxona iqtisodiy salohiyatining mazmun-mohiyati korxonaning raqobat ustunliklarini shakllantirish, uni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda aniqlashtiriladi, bunda u tashkilot iqtisodiy salohiyati mohiyatini aniqlashtirishda quyidagi yondashuvlardan foydalanishni taklif qiladi:

- 1) mahsulot ishlab chiqarish borasidagi umumiy imkoniyatlar;
- 2) mavjud resurslarning umumiyligi;
- 3) xoʻjalik faoliyati sub’yektlari oʻrtasidagi iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlarining natijasi (Sheremetyev, 2008).

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini oʻrganish yakuniy natijalarga erishish maqsadida tizimli ravishda tashkil etilgan moddiy, nomoddiy resurslar va ularni oʻzgartirish jarayonlarining umumiylikini koʻrib chiqishni oʻz ichiga oladi.

Korxona iqtisodiy salohiyati borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar tahlili quyidagi xulosalarni yasash imkonini beradi:


1. Deyarli barcha yondashuvlarning muhim xususiyati ularning iqtisodiy salohiyatni resurslarga asoslangan tushunishga yoʻnaltirilganligi boʻlib, bu bizning fikrimizcha, korxonaning tarmoqqa bogʻliqligiga qarab iqtisodiy salohiyatni shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Tarmoqning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy korxonalar iqtisodiy salohiyati tuzilmasi juda katta farq qilishi mumkin;

2. Iqtisodiy salohiyatning mohiyatini aniqlashda asosan korxonaning mavjud imkoniyatlari, uning erishilgan salohiyati darajasi yoki kerakli natijalarni baholashga eʼtibor qaratiladi.

Fikrimizcha, muayyan bir davrda korxonaning iqtisodiy salohiyatini uning maʼlum bir sifat va miqdoriy natijani taʼminlay olish imkoniyati sifatida qarash oʻrinli boʻladi. Shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholashda, erishilgan natijalarni oshirish va kapitalning barqaror oʻsishini taʼminlash borasida yaqin istiqboldagi uning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olish ham maqsadga muvofiqdir;

3. Xoʻjalik yuritishning tashqi muhiti iqtisodiy salohiyatning koʻlami va uning tarkibiy unsurlari oʻzaro bogʻliqligiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Bugungi kunda xoʻjalik yurituvchi sub’yektning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashish qobiliyatini belgilovchi omillardan biri sifatida har bir korxona iqtisodiy salohiyatining ahamiyati oshib borayapti. Muttasil

o'zgarib turuvchi bozor muhitining shart-sharoitlariga moslashish zarurati, bozorda korxonalar o'rtasida raqobat kurashining kuchayishi asnosida korxonaning "innovatsion salohiyati" tushunchasi bugungi kunda amaliyotga kirib keldi. Iqtisodiy salohiyat majmuasidagi faoliyatning innovatsion tarkibiy qismlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyati sohasini o'zgartirish, inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



1 –rasm. Iqtisodiy salohiyatning vaqt bilan bog'liq ko'rinishlari⁶⁵

Iqtisodiy salohiyat borasida tadqiqot olib borgan bir qator tadqiqotchilar iqtisodiy salohiyatni vaqt va makon jihatdan tadqiq qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, o'tmishda yaratilgan zahira va resurslar kelgusida korxonaning o'sishiga zamin yaratadi (1-rasm).

1-jadval

Iqtisodiy salohiyatni tahlil qilishning hisob-tahlil vazifalari va uning tashkil etuvchilari⁶⁶

Iqtisodiy salohiyatning namoyon bo'lish shakllari	Iqtisodiy salohiyatning mohiyati	Iqtisodiy salohiyat turlari	Mualliflik talqini	
			Iqtisodiy salohiyatning mohiyatini aniqlashtirish	Iqtisodiy salohiyatning hisob va tahliliy vazifalari
Resurslarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ifodalaydi	Tizimning maqsadli faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini tavsiflovchi mavjud resurslar majmui	Resurs, tabiiy, ishlab chiqarish, texnik	Biznesning ob'yektiv va sub'yektiv omillari ta'siri ostidagi o'ziga xos munosabatlar	Ishlab chiqarish salohiyatini baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish
Mulkiy holatni aks ettiradi	Rejalashtirilgan faoliyat hajmini ta'minlaydigan mavjud ishlab chiqarish omillari, zaxiralar va imkoniyatlar	Mulk, ishlab chiqarish, mehnat, kadrlar	Mehnat salohiyati iqtisodiy salohiyatni amalga oshirishning asosiy generatori vazifasini bajaradi	Mehnat salohiyati va baholash mezonlarining axborot - tahliliy modelini ishlab chiqish
Moliyaviy holatni aks ettiradi	Korxona kapitali, uning tuzilishi, moliyaviy barqarorligi va rentabellikni yaratish imkoniyatlari	Moliyaviy	Moliyaviy tuzilma va uni maqbullashtirish strategik maqsadlarga erishish garovi sifatida	Moliyaviy salohiyatni baholash algoritmini va kapital tarkibini maqbullashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish
Xo'jalik aloqalari darajasini aks ettiradi	Boshqaruv va xo'jalik aloqalari tizimi	Boshqaruv, axborot	Xo'jalik mexanizmi va uning unsurlari	Boshqaruv salohiyati modeli va uni baholashning mezon ko'rsatkichlarini asoslash
Maqsadli faoliyat va kelajakdagi samaralarni yaratish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi	Yashirin zaxiralar va korxonaning barqaror biznes o'sishini yaratish qobiliyati	Bozor, marketing, strategik, innovatsion	Bozor barqarorligi, faoliyatning raqobatbardoshligi	Bozor salohiyatini va uning integral ko'rsatkichini baholash usullarini ishlab chiqish

⁶⁵ muallif ishlanmasi.


⁶⁶ muallif ishlanmasi.

1-rasmda keltirilgan iqtisodiy salohiyat shakllarining tahlili, 1-jadvalda bayon qilingan iqtisodiy salohiyatni aniqlashtirish borasidagi uch asosiy yondashuvga mos kelishi borasida xulosa yasash imkonini beradi:

- resurs yondashuvi asosida ko'rib chiqiluvchi birlamchi salohiyat ;
- natijaviy yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutuvchi -joriy salohiyat;
- strategik yondashuvga asoslanuvchi strategik yondashuv.

Fikrimizcha, 2-rasmda keltirib o'tilgan jihatlar iqtisodiy salohiyatning asosiy jihatlarini aniqlashtirishga imkon beradi.

Iqtisodiy salohiyatni alohida xodimlar, mehnat jamoalari va umuman boshqaruv apparati o'rtasida yuzaga keladigan har bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq. Ushbu munosabatlar korxonani tashqi muhit bilan bog'laydi va korxonaning imkoniyatlari va jamoaning raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish qobiliyatlaridan samarali foydalanishni amalga oshirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.



2-rasm. Korxona iqtisodiy salohiyatining tavsifi⁶⁷

Iqtisodiy salohiyatning mohiyatini aniqlashga yondashuvlar tahlili uning mazmunini aniqlashtirish va mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini berdi. Korxonaning iqtisodiy salohiyati-bu resurslarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri; korxonaning mulkiy holati, moliyaviy holati va uning xo'jalik aloqalari; maqsadli faoliyat borasida imkoniyatlarni o'z ichiga oluvchi va kelgusida iqtisodiy samaraga ega bo'lish imkonini beruvchi murakkab iqtisodiy tushunchadir.

Korxonalarning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilishning tashkiliy-uslubiy qoidalarini chuqurroq tadqiq qilish maqsadida iqtisodiy salohiyat modelini tashkil etuvchi tarkibiy unsurlarni aniqlashtirish talab etiladi.

Shunisi e'tiborliki, iqtisodiy salohiyat kategoriyasini tadqqi qilish asnosida mahalliy va xorijiy mutaxassislar bir tomondan mazkur tushunchaning murakkab va ko'p qirraliligiga e'tibor qaratsalar, boshqa bir tomondan esa, mazkur kategoriyani yaxlit va batafsil tushuntirishga urg'u beradilar.

⁶⁷ muallif ishlanmasi

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, iqtisodiy salohiyat tuzilmasi ko'p o'lchovli bo'lib, salohiyatning moddiy va nomoddiy sohalarini va undan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarning bir butun majmui bilan belgilanadi va tavsiflanadi.

Iqtisodiy salohiyatni baholash va tahlil qilishda tashkiliy va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish va asoslash xo'jalik yurituvchi sub'yektning tarmoq xususiyatlarini (iqtisodiy faoliyat turlarini) hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy asosini er resurslari tashkil etadi, ularning hajmi va sifati ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi korxonasining er salohiyati darajasini belgilab beradi.

Dunyoda geosiyosiy vaziyatning chigallashishi, iqlim o'zgarishlarining soha ishlab chiqarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, tobora dolzarb bo'lib borayotgan suvdan foydalanish muammolari, shu bilan bir qatorda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning chigalliklari qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini qatytga ko'rib chiqishga, soha korxona va tashkilotlarini bozor tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Mana shunday bir sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlarini oshirish borasida ilmiy asoslangan tarzda harakat qilishlari lozim bo'ladi.

Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fodalaniuvchi ishlab chiqarish omillari – yer, mehnat, kapital, tirik organizmlar, axborot va innovatsiyalarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati ob'yektiv tarzda oshib boradi. Sanab o'tilgan omillarning boshqaruv bo'g'ini va boshqaruv vositalarining ishbilarmonlik fazilatlarini bilan o'zaro uyg'unligi qishloq xo'jaligi korxonasi iqtisodiy salohiyatining umumiy qiymatini shakllantiradi, uning tuzilmasi ko'p jihatdan xo'jalik yuritishning geografik, tabiiy, makroiqtisodiy, ijtimoiy va shu kabi tashqi iqtisodiy shart-sharoit va omillari bilan belgilanadi.

Xo'jalik yuritishning tashqi omillari orasida tabiiy va geografik shart-sharoitlar alohida o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining hududiy joylashuvi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish, tegishli tarmoq va sohalarini rivojlantirish, ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida ob'yektiv talablarni qo'yadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Akramov G. (2024) HUDUD MOLIVAVIY SALOHIVATINI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 2. – №. 1. – C. 18-26.

Logosha R., Mazur K. (2020) METHODOLOGICAL APPROACHES TO EVALUATION OF EFFICIENCY OF USE OF ECONOMIC POTENTIAL AGRICULTURAL ENTERPRISES //The scientific heritage. – №. 49-6. – C. 3-12.

Xasanov B.A. (2023) Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D. B. Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi".

Yuldashev Fozil Turapovich (2023) //“Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari” mavzusida 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati// T.

Асаул А.Н. (2011) Производственно-экономический потенциал и деловая активность субъектов предпринимательской деятельности.

Буранова Л. (2020) Финансовый потенциал региона: понятие, сущность и значение для развития Сурхандарьинской области //Экономика и инновационные технологии. – №. 4. – C. 204-213.

Зулунова Ф.А. (2008) Корхоналар молиявий салоҳият таҳлилини такомиллаштириш. //Диссертация.//Самарқанд.- 216

Нурмухаммидова М. Х. и др. (2021) ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ //ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH Tahlili ONLAYN ILMIY JURNALI.– Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.

Пардаев М.К. (2002) Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари //Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т.: Банк молия академияси. - 22-276

Плаксин В.И., Полещук А.С. (2013) Финансовый потенциал Белорусии его оценка и использование. Экономический журнал Белорусии. - №3. -с.87-97

Салихова Я.Ю. (2011) Конкурентный потенциал предприятия: сущность, структура, методика оценки: учебное пособие [Текст] / Я.Ю. Салихова. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, – 52 с.

Сухова Л.Ф. (2016) Финансовый потенциал предприятия: понятие, сущность, методы измерения. //Финансовая аналитика проблемы и решения. 12. - с2-9

Ускова С.И. (2006) Экономический потенциал предприятия как основа предпринимательской деятельности //Экономика и эффективность организации производства. – №. 6. – С. 139-146.

Шереметьев А.О. (2008) Категория "экономический потенциал" в экономическом анализе //Экономические науки. – №. 45. – С. 132-137.

Щуков В.Н. (2002) Экономический потенциал регионов России и эффективность его использования: учебное пособие //Иваново: ИГТА, 2002.–58 с.